PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA ISHLAB CHIQARISH TA'LIMI USTALARINING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Akramov Azamat Perimkulovich
Buxoro davlat texnika universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: ushbu maqolada professional ta'limda ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati, metodologiyasi va amaliy faoliyati keltirilgan. Professional ta'lim tizimida ishlab chiqarish ta'limi ustalari markaziy figuralaridan biri bo'lib, o'quvchilarga samarali ta'lim berishda hamda sifatli ishlab chiqarishni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini oshirish o'qituvchining bilimlari, bir tomondan, o'zi o'qitadigan predmetlarga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni o'zlashtiradigan o'quvchilarga qaratilgan. Kasbiy bilimlarning mazmunini o'zi o'qitadigan predmetni, uning metodikasini, pedagogika va psixologiyani bilishni tashkil etadi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, ishlab chiqarish, kasbiy-pedagogik kompetentlik, professional ta'lim, innovatsion ta'lim metodlari.

Аннотация: В данной статье представлены значение, методология и практическая деятельность развития профессионально-педагогической компетентности магистров производственного образования в профессиональном образовании. Магистр производственного образования являются одной из центральных фигур в системе профессионального образования и играют важную роль в эффективном обучении студентов и реализации качественной продукции. Повышая профессионально-педагогическую компетентность магистров производственного образования, с одной стороны, знания учителя фокусируются на предметах, которые он преподает, а с другой стороны, он ориентирован на обучающихся, их осваивающих. Содержанием профессиональных знаний являются знания предмета, его методологии, педагогики и психологии.

Ключевые слова: компетентность, производство, профессионально-педагогическая компетентность, профессиональное образование, инновационные методы обучения.

Abstract: This article presents the meaning, methodology and practical activities of developing professional and pedagogical competence of masters of industrial

ISSN 3030-3907

education in vocational education. Master of industrial education is one of the central figures in the system of vocational education and plays an important role in the effective teaching of students and the implementation of high-quality products. By increasing the professional and pedagogical competence of masters of industrial education, on the one hand, the teacher's knowledge is focused on the subjects he teaches, and on the other hand, he is focused on the students who master them. The content of professional knowledge is knowledge of the subject, its methodology, pedagogy and psychology.

Key words: competence, production, professional and pedagogical competence, professional education, innovative teaching methods.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim — iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, mehnat bozoridagi kadrlarga bo‘lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda «Hayot davomida ta’lim olish» prinsipi asosida shaxslarning ta’lim olishiga mo‘ljallangan. Bugungi kunda professional ta’lim muassasalarida ishlab chiqarish ta’limi ustalarining sifatli ta’lim berishi, ayniqsa, ishlab chiqarish ta’limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini oshirish imkoniyatlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ishlab chiqarish ta’limi ustalarining pedagogik va kasbiy tayyorgarligida, balki ta’lim oluvchilar bilan samarali pedagogik aloqani o‘rnatishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ishlab chiqarish ta’lim ustalari ish faoliyatida ilmiy, kasbiy-pedagogik bilim hamda ta’lim oluvchilarning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlamoqda. Ishlab chiqarish ta’limi ustalarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda ta’lim jarayonida samarali va innovatsion metodlarni qo‘llash, ta’lim oluvchilar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish orqali amalga oshirishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon miqyosdagi ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablardan biri XXI asr pedagogikasini yangi paradigmalar hamda raqamli ta’lim tranformatsiyasi asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Chuqur kasbiy bilim, undan unumli foydalanish ko‘nikmalari, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik, mustaqillik har doim pedagog faoliyatini alohida ajratib turgan bo‘lsa, XXI asr pedagogi uzluksiz ta’lim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim. Finlyandiyada Kattalar Ta’limi Tashkiloti (FAEA), Fransiyada “tajriba orqali olingan bilimlarni tasdiqlash” («Validation des Aquis de l’Expérience» (VAE) tushunchasining kiritilishi natijasida norasmiy va

ISSN 3030-3907

informal ta’limning me’yoriy-huquqiy bazasi yaratilgan. Germaniyada Weiterbildungspass (Uzluksiz ta’lim pasporti) va ernkultur Kompetenzentwicklung (Kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim madaniyati) joriy qilingan, Rossiyada “LifelongLearning” (hayot davomida o‘rganish) g‘oyasi malaka oshirish kurslari, qo‘shimcha va to‘ldiruvchi ta’lim dasturlariga tatbiq etilgan.

Uzluksiz ta’lim nazariyasining konseptual holatlaridan farqli o‘laroq, kattalar ta’limi nazariyasi va amaliyoti asosida katta odam tabiatidan kelib chiqqan tamoyillar yotadi: katta yoshdagi odam ehtiyoj sezmaguncha o‘qimaydi, u faqat o‘z fikriga ko‘ra zarur bo‘lgan narsalarni o‘rganadi va ish jarayonida o‘qiydi. Boshqacha qilib aytganda yoshi katta odam ta’lim jarayonida, aniqrog‘i bu jarayonning barcha parametrlari: maqsadlar, mazmun va o‘qitishning tashkiliy shakllarini aniqlashda yetakchi hisoblanadi.

Professional ta’lim — ta’lim oluvchilarda ma’lum bir mutaxassislik va kasblar bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta’lim tizimi.

Ishlab chiqarish ta’limi - O‘zbekiston Respublikasida malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoni hamda professional ta’limining tarkibiy qismi. Asosiy vazifasi - kelgusida malakali mutaxassis bo‘lib yetishadigan o‘quvchilarni muayyan kasb sohasida bevosita faoliyat ko‘rsatishga tayyorlash, ya’ni bilimlarni amaliyotga tadbiq etishga o‘rgatish, zarur kasb ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirishdan iborat. Ishlab chiqarish ta’limini amalga oshirishda nazariy ta’limning ahamiyati katta. Ishlab chiqarish ta’limi 3 asosiy bosqich (o‘quv ustaxonalari, o‘quv maydonlari, o‘quv laboratoriyalari, o‘quv xo‘jaliklaridagi ishlab chiqarish ta’limi; ishlab chiqarish sharoiti — korxona, qurilish, xo‘jaliklardagi ishlab chiqarish ta’limi; ishlab chiqarish tajribasi) ga bo‘linadi. Har bir bosqich o‘ziga xos maqsad va o‘quv jarayonida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, kasb xususiyatiga qarab ular turli muddatli bo‘ladi va u ishlab chiqarish ta’limi dasturi bilan belgilanadi.

O‘quvchilarning ishlab chiqarish ta’limi ishlab chiqarish ustasi rahbarligida va o‘quvchilarning unumli mehnati davomida amalga oshiriladi. ishlab chiqarish ta’limi mazmuni muayyan kasbdagi kichik muta-xassislarning mehnat faoliyati hamda malaka darajasini tahlil qilish asosida belgilanadi. O‘quvchilarga ishlab chiqarish ta’limi berishdan asosiy maqsad ularga o‘z kasblari uchun xos bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish, nazorat qilish, ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatishga o‘rgatishdan iborat.

Kompetentlik – ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada

ISSN 3030-3907

saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo‘lib, ma’lum sohadagi bilim, ko‘nikma va tajribani mujassamlashtirishi. Kompetentlik insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma’lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va o‘zi qaror qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi zamon fanida kasbiy komponentlik, ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy-psixologik kompetentlikka oid tushunchalar keng qo‘llanadi. Boshqaruvga oid kompetentlik ana shu sohaga taalluqli bilim va ko‘nikmalarning, rahbarlik faoliyatida amaliy tajribaning mavjudligi bilan belgilanadi.

Jahon mehnat bozori talablariga mos keladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tizimining eng asosiy funksional xususiyatlaridan biri sanalib, buni samarali amalga oshirilishi mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy kompetentligiga bevosita bog‘liqdir. Chunki oliy ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog-ustozlar qanchalik mahoratli, bilimdon, malakali va tajribali bo‘lsa, bir so‘z bilan aytganda “o‘z kasbining ustasi” bo‘lsagina, «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan maqsadlarga erishish jarayoni shunchalik samarali kechishi ta’minlanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 46-moddasida “Pedagog xodimlarning majburiyatlari” sifatida quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bular:

T a’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi;

o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi” pedagoglar kasbiy kompetentligini takomillashtirishning institutsional asosi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Bugun har bir tarbiyachi, oliygoh professor-o‘qituvchilari ta’lim va ilmfan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak”

Shu sababli ham “Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan “oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish”dek vazifani samarali amalga oshirish ham bevosita oliy

ISSN 3030-3907

ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar kasbiy kompetentligining takomillashuviga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 1875-son qarorida mamlakatda chet tillarga o‘qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg‘un kamol topgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratilgan. Shu bilan birga, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg‘or axborot va mediatexnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to‘liq javob bermasligi, ta’lim asosan an’anaviy uslublarda olib borilishi ta’kidlab o‘tilgan.

Xususan pedagoglarning faoliyatiga raqamli va axborot texnologiyalarini faol joriy etish, aholiga elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirish, byurokratik to‘siq va g‘ovlarga yo‘l qo‘ymaslik hamda idoralararo elektron hamkorlikni kengaytirish choralari dolzarb bo‘lib turmoqda. Butun jahon yangi texnologik o‘zgarishlar ostonasida turibdi, uning asosida zamonaviy texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari turganligi hech kimga sir emas. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, davlat va jamiyat hayotiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etilishi mamlakatni qisqa davr ichida rivojlantiradi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish”ga qaratilgan. Shuning uchun, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o‘rganishni tashkil qilish, o‘qituvchilar malakasini oshirish xususan, xorijiy til o‘qituvchisi kompetentligini oshirish hamda ta’lim jarayonini zamonaviy o‘quv- uslubiy materiallar bilan ta’minlashni yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

“Kompetentlik” (inglizcha: “competence” “qobiliyat”) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishni ifodalaydi. Har bir pedagog faoliyati davomida olib boradigan ishlarini tartibga solish loyihalash hamda loyihalash madaniyatiga e’tibor qaratish kerak. “Pedagogning loyihalash madaniyati”: pedagog kadrlarni qayta

ISSN 3030-3907

tayyorlash va malakasini oshirish kursi talabalarini loyihaviy faoliyatga doir bilimlarini takomillashtirish, pedagogik loyihalash bosqichlari va shakllarini o‘zlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni o‘zlashtirish, joriy etish, ta’lim amaliyotida qo‘llash ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

Pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini oshirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kadrlar salohiyati, ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasi, mavjud ichki imkoniyat - ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob’ektlarining mavjudligi va joylashishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bu esa, mazkur yo‘nalishni ustuvor rivojlantirishga nisbatan alohida yondashuvini taqozo etadi. “Kompetensiya” so‘zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo‘lmoq” kabi ma’nolarni anglatuvchi lotincha “competere” so‘zi asosida hosil bo‘lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi.

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimini yangicha ko‘rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali ta’lim samaradorligiga erishish davr talabidir. Ta’lim muassasasi bitiruvchisi o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg‘unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Professional ta’lim muassasalarida ishlab ciqarish ta’limi ustalarining kasbiy bilim samaradorligini oshirish, dars va ta’lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish:

tizimda yuqori malakali pedagoglar kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini uzluksiz va sifatli ravishda oshirib borishga;

Ikkinchidan, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar kasbiy qiyinchiliklari va ehtiyojlariga asoslangan uzluksiz sifatli metodik xizmatni tashkil etishga;

Uchinchidan, mavjud fan xonalari, o‘quv laboratoriya asbob-uskunalar, jihozlar va kompyuter texnikasidan, umuman olganda, barcha shart- sharoitlardan samarali foydalanishga;

To‘rtinchidan, sifatli ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, oliy ta’lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va umumta’lim maktablari hamkorligida ilg‘or ish tajribalarini amaliyotga joriy etishga;

ISSN 3030-3907

Professional ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi va mahoratiga bevosita bog‘liqdir.

Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo‘llay olishi - kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Jumladan:

– dunyo va mamlakatda ta’lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta’limi tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta’minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;

– kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– talabalarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta’lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;

– o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

– o‘quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog‘ligi, texnik hamda axborot xavfsizligini ta’minlashga tayyor bo‘lish;

– dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediaxavfsizlik me’yorlariga amal qilish;

Pedagoglar umumta’lim fanlarini o‘qitish darsining mazmuniga mediamadaniyat va mediaxavfsizlik tushunchalarini singdirib borishi, ularga axborot texnologiyalarining cheksiz ijobiy imkoniyatlari, afzalliklari bilan bir qatorda salbiy ta’siri va oqibatlaridan o‘zini himoyalash yo‘llarini ham o‘rgatish lozim. Bunda talabalarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini quyidagilarni inobatga olgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir:

– ta’lim oluvchilarda axborot texnologiyalarining hayot va jamiyatdagi roli, imkoniyatlari va qo‘llash doirasi, shuningdek, uning salbiy oqibatlari va ulardan himoyalanish haqidagi tushunchalarni shakllantirish;

– ta’lim olish va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida elektron resurslar, o‘quv dasturlari va boshqa o‘quv-metodik mahsulotlarning afzalliklarini anglash va qo‘llashni o‘rgatish;

– masofadan ma’lumot almashish lokal va global tarmoqda ma’lumot qidirishni va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatardan saqlanish hamda mediamadaniyat qoidalariga rioya qilish.

ISSN 3030-3907

Yoshlarimizda yangi zamonga mos hayotiy mo‘ljallarini belgilashda chalg‘imaslik, axborot makonida o‘zlariga kerakli manzilni aql-idrok, halollik va mehnatsevarlik bilan topish, Vatan taraqqiyoti va yurt faravonligiga o‘z hissasini qo‘shish kabi fazilatlarni tarbiyalash biz pedagoglarning burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Quliyeva Sh.H. “Аксиологический подход в профессионально-педагогической подготовке будущего учителя” Казанский педагогический журнал, №4. 2010. С. 48-52.
2. Кулиева Ш. Х., М.Каримова, М.Х. Давлаткулова Davlatkulova “Организация теоретических и практических занятий в процессе подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода” Молодой учёный журнал, №8 (67) июнь, 2014 г. С. 804-807.
3. Кулиева Ш. Х. “Проблемы автоматизации швейного производства” Молодой учёный. Казан, 2016. № 7 (111). - С. 97-99.
4. Кулиева Ш. Х. “Интенсификация процесса проектирования одежды” Молодой учёный. Казан, 2016. № 9 (113). -С. 193-196.
5. Кулиева Ш. Х., З.Д.Расулова “Формирование профессионально-педагогической компетентности будущих специалистов на основе информационных технологий” Молодой учёный. Казан, 2016. № 8 (112). -С. 977-978.
6. Кулиева Ш. Х., З.Д.Расулова “Инновационная деятельность педагога в образовании” Молодой учёный. Казан, 2016. № 8 (112). - С. 978-980.
7. Кулиева Ш. Х. “Методологические основы системного подхода при подготовке учителей” The Way of Science. № 5 (39) ,2017. - С.66-67
8. Quliyeva Sh.H. “Ўқув жараёнига инновацион таълим технологияларнинг қўллаш мазмуни” Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. Участника XX международной научно-практические исследования. М.: 2019. – С.126-130.
9. Quliyeva Sh.H., Juraev H., Karimova M., Azimova M., Juraeva N. “Interactive Technologies as a Means to Improve the Efficiency and Quality of the Educational Process” International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Special Issue 1, 2020 ISSN: 1475-7192. B. 591-596.
10. K.D. Odilovna, S.D. Ahmadovna, R.E. Tohirovich, R.D. Dilmurodovna “Methodology of using autocad software in developing technical creativity of students” Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (4), 661-671

ISSN 3030-3907

11. K.D. Odilovna, J.A. Razzoqovich “TALABALARNING TEXNIK KONSTRUKTORLIK KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY TA’LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI” ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI 2 (1), 43-45

12. D.O. Kamolova, B.B. Hamidov “TEXNOLOGIK TALIM FANINI OQITISHDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI” Вестник магистратуры, 62-67

ISSN 3030-3907